



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PIRLS TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHGA OID TAJRIBA SINOV ISHLARI

Rajabova Kimyoxon Farmonovna  
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqlolada boshlang‘ich sinflarda pirls tadqiqotlaridan foydalanishga oid tajriba sinov ishlari taҳlli, boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlash bo‘yicha tayyorlangan mashqlarga qo‘yilgan talab va tamoyillar, 2023-yildagi natijalar holatidan kelib chiqib, bo‘shliqlarga e’tibor qaratgan holda milliy dastur talablar bo‘yicha integratsiyalashgan mashqlar tayyorlash va ularni amaliyotga joriy etish masalalari haqida ilmiy tahlillar, xulosalap va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘z:** matnni o‘qish, tushunish, milliy ta’lim, PIRLS dasturi, mashq, ijodiy topshiriq, tamoyillar, tajriba-sinov, integratsiya, innovatsiya, savodxonlik.

**Аннотация.** В статье приводится анализ экспериментальных контрольных работ по использованию исследований pirls в начальных классах, требования и принципы к подготовленным упражнениям по определению читательской грамотности выпускников начальных классов, научный анализ, выводы и рекомендации по вопросам подготовки и внедрения в практику комплексных упражнений по требованиям национальной программы с акцентом на пробелы, исходя из состояния результатов в 2023 году.

**Ключевое слово:** чтение текста, понимание, национальное образование, программа PIRLS, упражнение, творческое задание, принципы, экспериментальное тестирование, интеграция, инновации, грамотность.

**Annotation.** The article describes the analysis of experimental test work on the use of pirls research in primary classes, the requirements and principles laid down in prepared exercises to determine reading literacy of primary school graduates, scientific analyzes, conclusions and recommendations on the issues of preparing integrated exercises and their introduction into practice according to the requirements of the national program, focusing on gaps,

**Keyword:** text reading, understanding, National Education, PIRLS program, exercise, creative assignment, principles, experience-testing, integration, innovation, literacy.

Mamlakatlarda o‘tkazilgan PIRLS tadqiqotining natijalari pedagogik hamjamiyat tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Boshlang‘ich bitiruvchi sinf o‘quvchilarining yutuqlari va ular tomonidan erishilgan natijalarni monitoring qilish mexanizmlari joriy etilmoqda, o‘quv texnologiyalari va boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining o‘quv yutuqlariga qo‘yiladigan talablar yanada takomillashtirish uchun ko‘rib chiqilmoqda. Xalqaro test topshiriqlari asosida maktab o‘quvchilar, pedagogik jamoalar va o‘qituvchilarning savodxonligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar nafaqat o‘quvchilarning ilmiy-savodxonlik yutuqlarini baholashga, balki birinchi navbatda o‘qish madaniyati va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu har bir mamlakatdagi yosh avlodning puxta va sifatli bilim olishi uchun muhim omildir.

Ta’limning belgilangan aniq maqsadlariga erishishda muhim bo‘lgan imkoniyatga quyidagilar kiradi:

- ta’lim maqsadlari;
- ta’lim standartlari;
- ta’lim dasturlari, dastur sifati;
- ta’lim jarayonining moddiy-texnika bazasi va uning sifati;
- o‘qituvchi kompetntligi va unga qo‘yilgan talablar;
- hamda axborot o‘quv-uslubiy bazani nazarda tutish mumkin.



Yuqoridagi ta’lim sifatini ifodalovchi har bir xarakteristika alohida o’rganish, tahlil, baholash imkoniyati va amaliyotni qamrab oladi.

Hozirgi vaqtida ta’limning sifati mamlakat maktablarining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi muhim tafsiflardan biridir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda ta’lim sifati mezonlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1-mezon: ta’lim oluvchilarining ta’lim olishdagi shaxsiy yutuqlari.

2-mezon: pedagoglarning professionalligi.

3-mezon: ta’lim jarayonini tashkil etish.

4-mezon: boshqaruv faoliyatini tashkil etish.

5-mezon: innovatsion faoliyat.

PIRLS tadqiqotlari muvaffaqiyatli ta’lim negizida muvaffaqiyatli shaxs, muvaffaqiyatli kelajak va muvaffaqiyatli kasb egasi yotganini ta’kidlaydi. IEA xalqaro assotsiatsiyasi o’zining 15 yillik tadqiqotlari natijasida 50 dan ziyod mamlakatlar, 12000 ta maktab, 340000 ta o’quvchi va 16000 ta o’qituvchining faoliyatini tahlil qildi. 15 yil ichida 4-sinf o’quvchilarining savodxonlik darjasini anchaga ko’tarilganligi ta’kidlanadi. Xalqaro ekspertlar 2 turdagagi o’qishni baholaydilar:

– yangi adabiyotni o’qish tajribasi;

– yangi ma’lumotni egallashga yo’naltirilgan o’qish malakasi.

Tadqiqotimizda ishtirok etuvchilar 2 turdagagi adabiyotni o’qishadi: badiiy va informatsion. Bunda tadqiqotda ishtirok etuvchilarining 4 ko’nikmasi baholanadi: zarur ma’lumotni topish va uni o’qib gapirib berish, matnning ma’lum qismidan zarur xulosalarni chiqarish, bosh qahramonlar harakatlaridan interpratatsiyalar namoyon qilish va o’z fikrlarini matnning zarur qismlaridan misollar bilan tasdiqlash.

Ushbu tahlillar asosida finlandiyalik boshlang’ich sinf bitiruvchilarining natijalari kuchli o’nlikdan o’rin olib, ularning o’qish savodxonligi oliy darajada ekanligi aniqlangan. Natijada savodxonlik ko’nikmalarini barcha sohalarda keng targ’ib qilish amaliyotini rivojlantirish, har bir fuqaroning hayoti davomida uzlusiz ravishda o’z savodxonligini oshirib borish va mustahkamlash uchun imkoniyat yaratish; ommaviy o’qish madaniyatini rag’batlantirishga qaratilgan maqsadlarni o’zida mujassamlashtirgan Finlyandiyaning birinchi Milliy savodxonlik strategiyasi ishlab chiqilgan.

Ushbu o’quv dasturidagi quyidagi yettita kompetensiya sohalari barcha fanlarni o’zlashtirishga yordam beradi:

1) fikrlash va o’rganishni tahlil qilish;

2) madaniy, o’zaro ta’sir va o’zini namoyon qilish;

3) o’ziga g’amxo’rlik qilish va kundalik hayotni boshqarish;

4) savodxonliklar: madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy;

5) axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini tushunish;

6) tadbirkorlik ko’nikmasiga egalik;

7) hayotda faol bo’lish, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish va barqaror kelajakni qurish.

Ushbu jarayonda asosiy e’tibor ta’lim tizimini tashkil etishdagi uzviylik va uzlusizlik tamoyiliga qaratilgan bo’lib, bunda yuqorida ta’kidlangan mezonlar: o’quvchining mustaqil xulosa qila olish, qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo’llay olish, matn yoki mavzuning mohiyatini tushunish, ifodalay olish, aytib berish hamda matn yoki mavzuga oid tasavvurga ega bo’lish kabilarda o’z ifodasini topadi.

O’zbekiston ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvida PIRLS xalqaro baholash dasturini qo’llash orqali boshlang’ich sinf o’quvchilarida o’qish savodxonligini shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim modelining jarayonni amalga oshirish mexanizmi adabiy va axborotli matnga qo’ylган talablar, matnni o’qish va tushunish qobiliyatini aniqlash va baholash mezonlari bir biri bilan uzviy ravishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1-bosqichda: adabiy va axborotli matn mavzusi, mazmuni, hajmi, tili nuqtayi nazaridan tanlab olindi;

2-bosqichda: matnni o’qish va tushunish qobiliyatini aniqlashda ularning aniq ko’rinishda berilgan ma’lumotni topa olish, matndan xulosa chiqara olish, matnning mazmunini, til xususiyatlarini, tuzilishini



tahlil qilish va baholash tamoyillari asosida o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini baholashni ta’minlaydigan metod belgilandi;

3-bosqichda: o‘quvchilarning kreativ fikrlash, muammolarni ko‘ra olish, voqealarni tahlil qila olish, og‘zaki va yozma nutqning ravonligi, hayotiy ma’lumotlarga tayana olish, tanqidiy yondasha olish, hayotiy ma’lumotlarga tayana olish, matnni ilmiy-badiiy tahlil qila olish, ekologik-estetik bilimlarni namoyish etish, axborotlar asosida tajriba orttirish va yangi g‘oyalar yaratish, tahlil qilish; fanlar bilan integratsiyalay olish, taqdimot qila olish ko‘nikmalarini baholash asosida o‘quvchilarning savodxonlik darajalari aniqlandi.

PIRLS tadqiqotlari asosida O‘zbekiston ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvni jarayonida quyidagilar e’tiborga olindi:

- 1) milliy dasturga asoslanish;
- 2) ajodolar merosidan foydalanish;
- 3) o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish;
- 4) amaliy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor qaratish;
- 5) o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini uzlusiz oshirib borish;
- 6) ota-onalar bilan doimiy hamkorlikni o‘rnatish;
- 7) ehtiyojlarga asoslangan ta’lim yondashuvlariga asoslanish;
- 8) kasbiy faoliyatga yo‘naltirish;
- 9) sog‘lom muhit va sog‘lom raqobatni ta’minlash;
- 10) mustaqil hamda tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar bazasini yaratish kabilar.

Milliy ta’limning jahon ta’limi bilan integratsiyalashuviga asoslangan PIRLS dasturi bo‘yicha o‘quvchilar bilimini baholashga amaliy yordam beruvchi ta’lim modelimiz yuqoridaq talablarni ta’minlash uchun xizmat qilib, monitoring maqsadlarining natijasini kafolatlaydi. Ya’ni o‘qituvchining tizimli ravishda matn mezonlarini bilishi, matnlarni o‘qish qobiliyatlarini anglashi va o‘quvchilar bilim darajasini baholashda mezonlarni to‘g‘ri qo‘llay olishi ta’lim berishning jahon standartlari talablariga javob berish samaradorligiga olib keladi.

Xalqaro ta’lim tadqiqoti assotsiatsiyasi ekspertlari tomonidan milliy ta’lim tizimi kerakli ma’lumotlar bazasi bilan ta’minlanib, boshlang‘ich ta’lim tizimida keng islohotlar olib borildi. Milliy ta’lim dasturimiz bilan jahon ta’limining integratsiyalashuvni jarayonlarini tahlil qilish va solishtirish maqsadida boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarining bilimlarini baholashda darsliklarda berilgan adabiy matnlar: Anvar Obidjonning «Mahallamiz jarchisi» she’ri, «Quvnoq ferma», «Quyosh – quvvat manbayi» va ilmiy matnlar: «Samarqand – tarix belgisi», «Antarktida», «Yo‘l qoidasi – umr foydasi»lardan foydalandik.

Natijada, o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholash, mакtabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tish muhim vosita ekanligi aniqlandi. Qolaversa, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, yetarli tajriba to‘plash, o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga erishilishi isbotlandi. (5-jadvalga qarang)

2021-yildagi PIRLS xalqaro tadqiqotida qatnashgan O‘zbekiston davlatining boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi bo‘yicha xalqaro monitoring natijalari 2023-yil 16-mayda xalqaro ekspertlar tomonidan taqdim etildi. Natijada o‘quvchilarimizning matnni o‘qish va tushunish savodxonlik darajalari xalqaro ta’lim tizimi ko‘rsatkichlari bilan solishtirilib, tahlil qilishga imkoniyat yaratildi.

Tadqiqot jarayonida tanlangan 4-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholashga qaratilgan test sinovlari(1); o‘quvchi so‘rovnomasasi (2); test sinovlariga jalb qilingan o‘quvchilarning ota-ona (vasiy)lari uchun ilk o‘rganish so‘rovnomasasi (3); o‘qituvchi so‘rovnomasasi (4); umumiyl o‘rta ta’lim maktabi ma’muriyati so‘rovnomasini (5) o‘z ichiga oldi. Tadqiqot materiallari (baholash daftarlari, so‘rovnomalari, o‘quvchilarning nazorat shakllari, tadqiqot natijalari va boshqalar) IEA tashkilotining mualliflik huquqiga tegishli bo‘lib, konfidensial hisoblandi.



Buxoro viloyatining Buxoro shahridagi 10-, 32-, 35-umumi o'rta ta'lim maktablari, Buxoro tumanidagi 1-IDUM, 5-, 10-, 16-umumi o'rta ta'lim maktablari, Peshku tumani 9-IDUMI, 3-umumi o'rta ta'lim maktabi, Kogon tumani 1-IDUM va 21-umumi o'rta ta'lim maktabi, G'ijduvon tumanidagi 3-, 10-, 61-umumi o'rta ta'lim maktablari, Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqala tumani 5-, 22-umumi o'rta ta'lim maktablari, To'rtko'l tumani 1-, 3-umumi o'rta ta'lim maktablari, Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi 1-, 47-umumi o'rta ta'lim maktablari, Qo'shko'pir tumanidagi 1-, 2-umumi o'rta ta'lim maktablari, Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanidagi 4-, 5-, 22-umumi o'rta ta'lim maktablari, Koson tumanidagi 17-, 20-, 75-umumi o'rta ta'lim maktablari, Qarshi tumanidagi 10-, 37-, 52-umumi o'rta ta'lim maktablarida tadqiqot ishlari olib borildi. Shuningdek, ishtirokchi maktablar rahbarlari va tanlangan sinf rahbarlari ta'lim muassasasidagi ta'lim muhitini o'rganuvchi maktab va o'qituvchi so'rnynomasi olindi.

#### 1-jadval

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qish darslarida PIRLS tadqiqotlarini qo'llay olish darajasini baholash mezonlari**

T/r	Mezonlar	Tajribadan oldin			Tajribadan keyin		
		yuqori	o'rta	quyi	yuqori	o'rta	quyi
1	Xalqaro tadqiqotlarning nazariy asoslari va tamoyillarini bilishlari	22	10	22	31	21	2
2	O'qituvchilarni PIRLS tadqiqotiga chorlaydigan ish usul va metodlaridan foydalana oishlari	19	14	21	33	18	3
3	Tadqiqotda o'quvchilarning mushohadali (kreativ) fikrlay oishlarini rivojlantirishlari	18	17	19	30	19	5
4	PIRLS topshiriqlarini bajarishda o'quvchilarning muammolarni aniqlash va yecha oishlari	15	19	20	28	22	4
5	Xalqaro tadqiqotlarni amaliyotda qo'llash jarayonini tashkil etishga qaratilgan pedagogik faoliyatlarini tahlil qilib, takomillashtira oishlari	18	15	21	31	20	3
6	Topshiriqlarni yechishda o'quvchilar hayotiy ma'lumotlarga tayana oishlari	16	19	19	30	22	2
	Jami:	108	94	122	183	122	19
	O'rtachasi:	18	16	20	30	21	3
	Foizlarda:	33,3	29	37,7	56,5	37,7	5,9

#### 2-jadval

**PIRLS xalqaro baholash va milliy ta'lim dasturini integratsiyalash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini aniqlash ko'rsatkichlari**

T/r	Mezonlar	Tajribadan oldin			Tajribadan keyin		
		yuqori	o'rta	quyi	yuqori	o'rta	quyi
1	Kreativ fikrlay oish	233	420	312	412	351	202
2	Tanqidiy yondasha bilish	214	466	285	429	378	158
3	Muammolarni ko'ra oish	224	401	340	398	417	150
4	Voqealarni tahlil qila oish	348	423	194	431	405	129
5	Og'zaki va yozma nutqning ravonligi	298	459	208	389	397	179
6	Hayotiy ma'lumotlarga tayana oish	316	405	244	408	369	188
7	Ilmiy-badiiy tahlil qila oish	267	452	246	389	395	181



8	Ekologik-estetik bilimlarni namoyish etish	292	399	274	405	446	114
9	Axborotlar asosida tajriba orttirish va yangi g'oyalar yaratish	258	403	304	379	356	230
10	Tahlil qilish jarayonida fanlar bilan integratsiyalay olish	306	366	293	419	368	178
11	Taqdimotlar qilish	305	378	282	406	369	190
<b>Jami:</b>		<b>3061</b>	<b>4572</b>	<b>2982</b>	<b>4465</b>	<b>4251</b>	<b>1899</b>
<b>O'rtachasi:</b>		<b>278</b>	<b>416</b>	<b>271</b>	<b>461</b>	<b>381</b>	<b>123</b>
<b>Foizlarda:</b>		<b>28,8</b>	<b>43,1</b>	<b>28,1</b>	<b>47,8</b>	<b>39,5</b>	<b>12,7</b>

### 3-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLS tadqiqotida qatnashish bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va komptensiyalarning samaradorligini aniqlash yuzasidan tajriba va nazorat sinflaridagi o'zlashtirish natijalari

Tajribalarning o'zlashtirish darajalari	Tajriba guruhi. m=965 X <sub>1</sub>		Nazorat guruhi. N=915 Y <sub>1</sub>	
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
Yuqori	278 (28,8%)	461(47,8%)	275(30%)	419(45,6 %)
O'rta	416 (43,1%)	381(39,5%)	339(37%)	304(33,8%)
Quyi	241 (28,1%)	123(12,7%)	301(33%)	192(20,6%)

Yuqoridagi ma'lumotlar assosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari matematik-statistik tahlilini qilish uchun Student – Fisher metodi tanlandi. Hamda keltirilgan natijalar o'tkazilgan tadqiqot ishlarining samarali bo'lganligini tasdiqladi.

Tajriba va nazorat sinfidagi baholash natijalari mos ravishda 1 va deb olsak, quyidagi variantsion qatoriga ega bo'lamiz

$$\begin{array}{cccc}
 \text{1 - tanlanma} & X_1: & \text{yuqori;} & \text{o'rta;} \\
 (\text{tajriba guruhi}) & m_1 & 461; & 381; \\
 & m = 965 & & 123 \\
 \text{2 - tanlanma} & Y_1: & \text{yuqori;} & \text{o'rta;} \\
 (\text{nazorat guruhi}) & n_1 & 419; & 304; \\
 & n = 915 & & 192
 \end{array}$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma (3-rasm)da ko'rsatilgan.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Tajriba guruhi natijalari nazorat guruhi natijalaridan yuqori ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov natijalari asosida O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida PIRLS xalqaro baholash dasturini qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligining samaradorligi 7.9 % oshganini ko'rish mumkin.

Tadqiqotimiz bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirib o'tishni joiz topdik:

1. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturini qo'llashda ilg'or mamlakatlarning tajribasiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oyalar metodologik asos vazifasini o'taydi.

2. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida PIRLS xalqaro baholash dasturini qo'llashda adabiy tushunchalar ustida ishslash badiiy asar tahliliga falsafiy, pedagogik,



psixologik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik jihatidan yondashilishiga ko‘ra o‘quvchilarning savodxonligi, badiiy-estetik tafakkuri bilan bog‘liq keng qamrovli tushunchadir. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim yosh avlodning fan asoslarini pishiq-puxta egallahshlarida hamda ma’naviy-axloqiy kamolotida muhim o‘rin tutadi.

3. O‘qish darslarida badiiy matnning kompozitsion tuzilishi, adabiy qahramonlar xarakterining shakllanish tarixi, syujet voqealarining o‘zaro bog‘liqligi yuzasidan olib boriladigan ijodiy ishlar asar mazmunini shunchaki qayta hikoyalash bilan cheklanmasdan, ijodiy fikrlashga, o‘z-fikr mulohazalarini dalillashga yo‘naltirilishi jihatidan o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni badiiy asarlarni o‘qib tushunish va mazmun-mohiyatini idrok qilishga tayyorlash ta’lim jarayonining har bir bosqichida ularning intellektual salohiyati, ruhiyati, intilishlari va qiziqishlarini hisobga olishni taqozo etadi.

5. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha boshlang‘ich sinflarning «Ona tili va o‘qish savodxonligi» darsliklaridagi o‘quv materiallari yuzasidan olib borilgan izlanishlar badiiy asarlar tahliliga sinflar kesimida adabiy tushunchalar asosida kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanтирish hamda nazariy bilimlarni chuqr egallahshlariga zamin yaratishi aniqlandi.

6. Globallashuv va axborot - kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda adabiy tushunchalar vositasida o‘quvchilarning kitobxonlik va mutolaa madaniyatini shakllantirishning test, qiyosiy tahlil, suhbat, mustaqil ish bilan bog‘liq interfaol usullardan foydalanish o‘qish ta’limi samardorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

7. O‘qish darslarida o‘quvchilarni badiiy matnni tushunish, undan kelib chiqadigan tarbiyaviy va ekologik g‘oyani anglashga o‘rgatishda PIRLS – tadqiqot metodlaridan foydalanish bevosita adabiy tushunchalar bilan bog‘liq tarzda amalga oshirilishni talab etadi. Bu esa boshlang‘ich sinflar bitiruvchisining Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishishi uchun zamin hozirlaydi.

### **Mavzuga oid tavsiyalarimiz:**

1. O‘zbekiston ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llashda izchillik va tizimlilik tamoyiliga qat’iy amal qilinsa, nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

2. O‘quv dasturi asosida o‘rganiladigan adabiy tushunchalarni sinflar kesimi bo‘yicha rejulashtirilsa, kitobxonlik ko‘nikma-malakalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga zamin yaratadi.

3. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning badiiy asar mohiyatini adabiy tushunchalar vositasida o‘zlashtirishlariga erishish.

4. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni badiiy va ilmiy ma’lumot beruvchi asarlarni o‘qib tushunish va mazmun-mohiyatini idrok qilishga tayyorlab borish jarayonining har bir bosqichida ularning intellektual salohiyati, ruhiyati, intilishlari va qiziqishlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdixadirova, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 696-700.
2. Elley, W.B. (1992). How in the world do students read? IEA study of reading literacy. The Hague, Netherlands: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
3. Abdixadirova, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 696-700.
4. Elley, W.B. (1992). How in the world do students read? IEA study of reading literacy. The Hague, Netherlands: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
5. Rajabova K.F. Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda jahon ta’limi bilan integratsiyalash – ta’lim sifatini oshirish omili / «Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2022/№7/ 174-179 bet;



5. Rajabova K.F. PIRLS xalqaro tadqiqot dasturi / Ma'rifat yog'dusi. Ta'limiy, ma'naviy-ma'rify gazeta. №11-12 (59-60) 1-30 iyun 2019-yil/7 bet;
6. Rajabova K.F.O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ilmiy ahamiyati (PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida) «Pedagogik mahorat» jurnali 2022-y. iyun 9 bet;

www.worldlyknowledge.uz